

SURXONDARYO VILOYATI HUDUDIDA UCHROVCHI LOCHINLAR (FALCONIDAE) OILASIGA MANSUB NOYOB QUSHLAR VA ULARNI MUHOFAZA QILISH MASALALARI

Saidova M.

Bekmurodov A.

Termiz davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15379757>

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 62-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlar", 68-moddasida esa "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralarni umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir" deb ta'kidlangan [1].

Surxondaryo viloyati cheksiz tabiiy resurslarga, turli-tuman nabotot va hayvonot olami vakillariga boyligi bilan ajralib turadi. Bu yerda juda ko'p hayvon turlari uchraydi, ularning ayrimlari turli ta'sirlar natijasida areali torayib, soni kamayib borayotgan, bir so'z bilan aytganda "noyob hayvon" maqomini olayotgan turlardir. Mazkur hayvonlar qat'iy himoyaga muhtoj bo'lib, ularning biologik va ekologik xususiyatlarini chuqurroq o'rganish, ilmiy asoslangan muhofaza choralarini ishlab chiqish eng muhim vazifalarimizdan biridir [3]. Quyida Surxondaryo viloyati hududida uchrovchi Lochinlar (Falconidae) oilasiga mansub noyob qushlar, ularning kamyoblik darajasi, cheklovchi faktorlar, muhofaza qilish masalalari bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Oila. Lochinlar – Соколиные – Falconidae

Avlod. Lochin – Сокол - Falco

Tur. *Kuyka (cho'l miqqiysi) – Степная пустельга – Falco naumanni
Fleischer, 1818*

Kuyka uchib o'tuvchi qush turi bo'lib, Surxondaryo viloyati hududidagi Bobotog', Boysuntog', Ko'hitang tog'lari va Hisor tog' tizmalarida, dengiz sathidan 3000-3600 m balandliklarda uchib o'tish davrida uchraydi. "Surxon" davlat qo'riqxonasining Xo'janqo bo'limi hududida bir jufti uya qo'yishi aniqlangan. O'tgan asrning 70 yillarida Respublikamiz, ayniqsa, viloyatimiz hududida uyalashi va uchib o'tishi odatiy hol hisoblangan bo'lsa, hozirgi vaqtda, ularning soni asta-sekin sezilarli darajada kamayib ketgan.

Cho'l miqqiysining bahorgi uchib o'tishi mart-aprel oylariga to'g'ri keladi. Ular jarliklar va qoyalarning o'yiqlarida koloniyalar hosil qilib inlaydi. Aprel-may oylarida tuxum qo'yadi (3-5 ta) va tuxumlarini 28 kun bosib yotadi. Polaponlari iyun-iyulda ucha boshlaydi. Kuzgi uchib o'tishi avgust-oktyabrda. Qishlash uchun Hindiston, Arabiston, janubiy va markaziy Afrikaga uchib ketadi. Ular asosan, hasharotlar (chigirtka, qo'ng'iz, ninachilar va boshq.), mayda kemiruvchilar, kaltakesaklar va qushlar bilan ovqatlanadi. Chigirtkalarni ko'plab qirib foyda keltiradi.

Insonlar xo'jalik faoliyati maqsadida hududlarning o'zlashtirilishi oqibatida kuykalar yashash joylarining vayron qilinishi, inlarining buzib tashlanishi ularning soni keskin kamayib ketishiga sabab bo'lgan.

Kuykalar noyob qush turi sifatida TMXI Qizil ro'yxatiga, SITESning II-Ilovasiga va "O'zbekiston qizil kitobi" ga kiritilgan. Ularni ovlash ta'qiqlangan bo'lib, tog' qo'riqxonalari va milliy bog'larda muhofaza ostiga olingan [2].

Tur. Itolg'i – Балобан – *Falco cherrug J.E.Gray*

Itolg'i uyalovchi, uchib o'tuvchi va qishlovchi kenja tur bo'lib, Surxondaryo viloyati hududida Bobotog', Boysuntog', Ko'hitang tog'larida uchraydi. "Surxon" davlat qo'riqxonasi hududining Qizilolma, Xo'janqo, Sherjon, Vandob bo'limlarida yozgi mavsumda ularning 5-6 boshi uchrashi qayd etilgan. Ularning soni sezilarli darajada kamayib borayotganligi qayd etilmoqda.

Itolg'ilar tog'lardagi qoyalar, jarliklar, elektr uzatish liniyalari ustunlarida in quradi. Bahorgi uchib o'tishi martda. Fevral-mart oylarida tuxum qo'yadi (3-5 ta) va tuxumlarini 28 kun bosib yotadi. Polaponlari may-iyun oylarida ucha boshlaydi. Kuz va qish fasllarida keng ko'lamda ko'chib yuradi. Ularning kuzgi uchib o'tishi sentyabr-noyabrda, qishlashi esa dekabrda fevralgacha. Itolg'ilar kemiruvchilar, qushlar bilan ovqatlanadi.

Itolg'ilar sonining keskin kamayishiga kemiruvchilar sonining o'zgarib turishi, noqonuniy ovlash, inlarining buzib tashlanishi, bundan tashqari, ularning elektr uzatish tizimlarida ko'plab nobud bo'lishi sabab bo'lgan.

Itolg'ilar noyob va muhofazaga muhtoj tur sifatida TMXI Qizil ro'yxatiga, SITESning II-Ilovasiga va "O'zbekiston qizil kitobi" ga kiritilgan. Ularni ovlash ta'qiqlangan bo'lib, qo'riqxonalar va milliy bog'larda muhofaza ostiga olingan.

Tur. Lochin – Сокол-саясан – *Falco peregrinus, Tunstall, 1771*

Lochin tabiatan kamyob, nominal va tundra kenja turi bo'lib, Surxondaryo viloyati hududida Ko'hitang tog'i etaklari, tekisliklarida uchib o'tish va qishlash davrida uchraydi. Ularning soni hamma vaqt kam bo'lgan. Yakka holda va 2-5 ta individdan iborat kichik guruh bo'lib uchib o'tadi va qishlaydi.

Lochinlarning bahorgi uchib o'tishi mart-aprelda. Aprelning oxirlarida, may oyining boshlarida 2-3 dona tuxum qo'yadi. Kuzgi uchib o'tishi esa oktyabr-noyabr oylariga to'g'ri keladi. Qishlashi noyabrdan fevralgacha. Qushlar (kaklik, ko'k kaptar, bulduruq, zag'cha va boshq.) va kemiruvchilar bilan ovqatlanadi. Mahalliy ovchilar lochinni qo'lga o'rgatib, qush ovi qiladilar.

Lochinlarni noqonuniy ovlash oqibatida ularning soni keskin kamayib ketgan. Hozirgi vaqtda qat'iy muhofazani talab etadi.

Lochinlarni ovlash ta'qiqlangan bo'lib, noyob tur sifatida SITESning II-Ilovasiga va "O'zbekiston qizil kitobi" ga kiritilgan hamda muhofaza ostiga olingan.

Tur. Mallabosh lochin (*sahro lochini*) – Шахин (рыжеголовый сокол) – *Falco pelegrinoides Temminck, 1829*

Mallabosh lochin tabiatan kamyob, yarim o'troq kenja tur bo'lib, Ko'hitang tog'ida uchrab, sog' tuproqli jarliklar va toshqoyalarda uyalaydi va bir necha jufti qishlaydi. Sherobod daryosining o'rta oqimlarida va "Surxon" davlat qo'riqxonasining Kampirtepa bo'limida kam sonda uchrashi aniqlangan. Qo'riqxonada uning 1 ta uyasi qayd etilgan. Ularning soni hamma vaqt kam bo'lgan. O'tgan asrning 90 yillaridan boshlab lokal kamayib borayotganligi qayd etilmoqda.

Mallabosh lochinlarning bahorgi uchib o'tishi martda. Ular qoyalar, jarliklarda uyalaydi. Fevral-aprel oylarida tuxum qo'yadi (3-5 ta) va tuxumlarini 28-30 kun bosib yotadi. Polaponlari may-iyunda ucha boshlaydi. Kuz va qishda uzoq masofalarga ko'chadi. Ularning kuzgi ko'chishi sentyabr-noyabrda. Qishlashi dekabrdan fevralgacha. Mayda va o'rtacha kattalikdagi qushlar, ba'zida kemiruvchilar bilan ovqatlanadi.

Mallabosh lochinlar sonining keskin kamayib ketishiga ularni noqonuniy ovlash, inlarining vayron qilinishi sabab bo'lgan. Hozirgi vaqtda qat'iy muhofazaga muhtoj tur hisoblanadi.

Mallabosh lochin noyob qush turi sifatida SITESning I-llovasiga va "O'zbekiston qizil kitobi" ga kiritilgan. Ularni ovlash ta'qiqlangan bo'lib, Surxon qo'riqxonasida muhofaza ostiga olingan.

Tavsiyalar

- Har bir noyob qush turini muhofaza qilish ishlarini tashkil etishda eng avvalo shu turning o'ziga xos biologik, ekologik, etologik xususiyatlarini atroflicha tadqiq qilish lozim.
- Tabiiy resurslarni muhofaza qilish sohasidagi ishlarni to'laqonli amalga oshirishda mazkur sohada ish olib borayotgan xodimlarning bilim va ko'nikmalari qay darajada ekanligi juda muhim masala hisoblanadi.
- Aholi o'rtasida tabiiy muhitni saqlab qolish, kamyob hisoblangan hayvonot olami vakillarini muhofaza qilish sohasida targ'ibot ishlarini kuchaytirish zarur. Buning uchun gazeta, jurnallarda, televidenie va radioda tabiat, o'simlik va hayvonlar, ayniqsa, noyob hayvon turlari, ularni muhofaza qilish masalalarini kengroq yoritish lozim. Har bir fuqaroda, ayniqsa, yosh avlodda ekologik madaniyatni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. 2-tom. Toshkent. "Chinor ENK", 2019.
3. Bekmurodov A.S. Surxondaryoning noyob hayvonlari. Toshkent. "Nihol" nashriyoti. 2018 yil. 88 b.